

## Mavzu: Geografiya o‘quv jarayonlarida enerjayerlardan foydalanish

**Allaberganova Noila Shuxrat qizi**

Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Enerjayer bu – o‘quv jarayoniga nisbatan ishlatilganida, darsda o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularni jismonan va ruhan tetiklashtirish maqsadida qo‘llaniladigan faoliyat. Ushbu maqolada enerjayerlarni maktab ta‘lim tizimida qo‘llash bo‘yicha Geografiya fanining ayrim mavzulari misolidagi namunalari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Enerjayer, mashq, eslab qolish, motivatsiya, geografik koordinatalar, masshtab, geografik qobiq, qarsak, kayfiyat.

Turli sohalarning zamonga mos holda o‘zgarib borishi ta‘lim jarayonlarida ham kuzatilmoqda. S.L.Rubinshteyn, N.A.Mechinskaya, T.V.Kudryatsev kabi psixologlarning ta‘biri bilan aytganda, ta‘lim jarayonida aqliy taraqqiyotning ta‘minlanishi zarur bo‘lib, aqliy taraqqiyot o‘zlashtirilgan bilimlarning hajmi va sifatidan tashqari, bilish jarayonlarining tuzilishi, o‘quvchilardagi mantiqiy operatsiyalar hamda aqliy harakatlarning tizimi bilan ham tavsiflangan holda, o‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi [2]. Shu boisdan, dars jarayonlarida yana bir yangi, keng ommalashayotgan texnika – enerjayerlarning aqliy faoliyatni yaxshilashga qaratilgan holda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘lmoqda.

O‘qituvchilar enerjayerlarni ko‘pincha, xushyorlikni yaratib olish, jamoat tuyg‘usini rivojlantirish va mavzular orasidagi o‘tishni yumshoqroq qilish uchun darslarga kiritadilar. Ularning ta‘siri bir lahzalik o‘yin-kulgidan tashqariga chiqib, charchoqni yumshatadi va nevroplastiklikni rivojlantiradi [4]. Chindan ham enerjayerlarning qo‘llanilishi o‘quvchilar charchog‘ini chiqarish, diqqatini jamlash, eslab qolishni oshirish kabilarda asqotadi. Ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati katta bo‘lib, undan Geografiya darslarida ham samarali foydalanish mumkin

Enerjayer o‘zi nima? Bu atama, odatda, energiya manbalarini va quvvatni oshirishga yordam beradigan qurilmalarni anglatadi, lekin u kengroq ma‘noda ham ishlatiladi. Masalan, bu atamaning shaxsiy va jamoaviy motivatsiyani oshirishga yordam beruvchi faoliyatlar ma‘nosi ham mavjud.



Enerjayzer (faollashtirish) mashqlari – ta’lim jarayonining faollashtiruvchi usullardan biri [5] bo‘lib, uni o‘quvchilarni rag‘batlantirish yoki jamoalar o‘rtasida samarali ishlashni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘tkaziladigan maxsus dasturiy qism sifatida tushunish mumkin. O‘quv jarayonida shaxsiy va jamoaviy motivatsiyani oshirish uchun to‘g‘ri tanlangan faollashtiruvchi enerjayzerlarni o‘tkazish foydalidir. Chunki enerjayzerlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish o‘quvchilarni faollashtiradi va diqqatini jalb etishga imkon beradi. Bu esa dars jarayonini yanada qiziqarli va hayajonli qiladi.

Agar har bir metod va usullardan to‘g‘ri foydalanilsa, ular o‘quvchilar faolligini oshiradi. Metodlarning biri o‘quvchi xotirasini, ikkinchisi – tafakkurini, uchinchisi – idrokini, to‘rtinchi – his va tuyg‘usini faollashtirishi mumkin [1].

Geografiya darslarida enerjayzerlarning qo‘llanilishi o‘quvchining zerikmasligi va diqqatini jamlay olishiga, shuningdek, ma’lumotlarni yaxshi eslab qolishiga yordam berib, izlanuvchanlik, topqirlik xislatlarini shakllantirishga qaratilgan holda tashkil etish ham mumkin. Masalan, „Geografik koordinatalar“ mavzusi yoki shunga doir amaliy mashg‘ulotlar vaqti uchun quyidagi enerjayzer qo‘l keladi: O‘quvchilar o‘rnidan turadi. O‘qituvchi “Geografik kenglik (yoki kenglik, shimoliy kenglik, janubiy kenglik)” deganda, quloqlarini keng yoyishi, “Geografik uzunlik (uzunlik, sharqiy uzunlik, g‘arbiy uzunlik)” deganda, qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, oyoq uchida turib olishlari kerak. Mashq bir necha marotaba bajartiriladi. Bu enerjayzerning dars samaradorligi uchun afzalligi yangi tushunchalarni eslab qolishga ko‘maklashish, o‘quvchilarni ruhan va jismonan tetiklashtirishdan iborat.

“Masshtab” mavzuni tushuntirganda ham o‘qituvchi enerjayzerdan foydalanishi mumkin. Masalan, sonli masshtabni nomliga aylantirganda, metr uchun 2 ta nol, kilometr uchun 5 ta nol “o‘chirish”ni kichik enerjayzer shaklida yodlatsa bo‘ladi. Bunda hamma o‘quvchi o‘tirgan joyida ko‘zini yumib, bir qo‘lini tepaga ko‘taradi. “Metr” deganda, barmoqlarida 2 ni, “kilometr” deganda, 5 ni ko‘rsatishlari kerak. Bu orqali o‘quvchilar diqqati jamlanib, ma’lumotlar yaxshi esda qoladi.

Geografiyadagi yana bir muhim mavzu – “Geografik qobiq”ning tarkibiy qismlarini tushuntirishda “4 qobiq” enerjayzerini tavsiya qilamiz. Bu enerjayzer mavzu to‘liq tushuntirib bo‘lingach qo‘llanilgani ma’qul. Bunda hamma o‘quvchi o‘rnidan turib, o‘qituvchi buyrug‘ini bajaradi:



- Atmosfera yoki havo, bug‘ deyilganida, o‘ng qo‘l tepaga ko‘tarilib, silkitiladi;
- Gidrosfera yoki suv deyilganida, chap qo‘l pastga tushurilib, silkitiladi;
- Litosfera yoki tosh deyilganida, qo‘llar qovushtirilib, siqiladi;
- Biosfera yoki hayot deyilganida, yengil qarsak chalinadi;

O‘qituvchi so‘zlarni tez-tez va almashtirib aytishi, pozitiv kayfiyatni saqlay olishi kerak. Bu enerjayzerni dars yakunida qo‘llash o‘quvchilarni ruhan, jismonan tetiklashtirishga, darsni pozitiv kayfiyatda yakunlashga yordam beradi, ularda geografik qobiq tarkibiy qismlarini mustaqil ajrata olish ko‘nikmasini shakllantiradi.

O‘quvchilar mavzuning yangi tushunchalarini yod olishlari, guruh bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishlari uchun ham enerjayzerlar ahamiyatlidir. Misol uchun, “Litosfera” mavzusini olsak, bunda o‘quvchilar 3 guruhga ajratilib, guruhlarga “Cho‘kindi”, “Granit”, “Bazalt” nomlari berilgani aytiladi. Har bir guruh o‘z nomi aytilganda qarsak chalishi kerak. Keyin buni “materik yer po‘sti” va “okean yer po‘sti”ga kiruvchilar uchun alohida-alohida bajartirish mumkin.

Enerjayzerlarni tanlash va o‘rinli qo‘llash ham pedagog mahorati, o‘quvchilar yoshi, sinf holati kabi qator omillarga bog‘liq. Oddiy qarsak bilan ham enerjayzer qo‘llash mumkin.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bir turdagi enerjayzerlar bir sinfga mos kelsa, shu sinfnig parallel sinfiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Chunki hamma sinfnig ham ichki muhiti bir xilda emas. Bundan tashqari, bir enerjayzerni tez-tez qo‘llash ham noto‘g‘ri, ya’ni bu o‘quvchilar uchun tanish va zerikarli bo‘lib qoladi. Shuning uchun enerjayzerlarni almashlab va orani ochib qo‘llash tavsiya qilinadi.

Bugungi kunda Geografiyaning Tabiiy fanlardan alohida kursi 7-sinfdan boshlanib, bu kursda o‘quvchilar “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” bilan tanishadilar. Bu kursda qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali enerjayzerlardan yana biri sifatida quyidagiga o‘xshash enerjayzerlarni tanlash tavsiya etiladi: O‘quvchilar o‘tirgan holatda qo‘llarini ko‘tarib, barmoqlari yordamida o‘qituvchi aytgan buyruqni bajaradilar (1-rasm). O‘qituvchi “materik” desa, o‘quvchilar qo‘lida 6 ni ko‘rsatishi, “okean” desa, 4 ni ko‘rsatishlari kerak. “Qit’a” deyilsa ham 6, “havza” deyilsa, 5 ko‘rsatiladi. Bu yerda sonlar tushunchalarning sonini izohlamoqda, ya’ni 6 materik, 4 okean, 6 qit’a va 5 ta havza (Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeani havzalari, va berk havza) mavjud.





### 1-rasm. Dars jarayonidagi enerjayzerdan lavha

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan faoliyatlar o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlaridagi jismoniy va aqliy faolligini oshiradi, kayfiyatni ko‘taradi hamda dars mavzusiga mos ma‘lumot olishiga yordam beradi. Shuningdek, jamoada o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, tortinchoq yoki past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ham ishlash, ularni faollikka undashda enerjayzerlarning o‘z o‘rniga ega. Har bir faoliyat o‘qituvchining mavzusiga mos ravishda ma‘lum bir o‘quv sharoiti va o‘quv maqsadida moslashtirishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduvohidov S.N., Ganiyev Z.A. Geografiya ta‘limi metodikasi. /O‘quv qo‘llanma/. Samarqand – 2021. 330-b.
2. Matsaidova S.X., Rustamova M.A. “Geografiya ta‘limida o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish muammolari” /Maqola/ “Science and Education” Scientific Journal. March 2023. 426-430-b.
3. Mirakmalov M. T., Sharipov Sh. M., Avezov M. M., Hojiyeva M. T. Geografiya: 7-sinf uchun darslik. -T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. -176 b.



4. Murodova R.O., Mamatova Z.F., Gopurova N.A. “The power of energizer activities in the classroom” /Maqola/ “Ta’lim maydoni tendensiyalari: kompetentsiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 25-aprel, 2025. 336-340-b.

5. Odilova M., Jabbarova D., Jo’raev S. Pedagogik atamalar. –Namangan, 2023.

6. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma/.-T., 2013. -116 b.

7. <https://uz.wikipedia.org>



---

Research Science and  
Innovation House